

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023-YIL
YANVAR-IYUN**

Jizzax – 2023-y.

SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023-yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-ko‘n sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l	–	litr
foiz	–	%	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	iyuna
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	Ga	–	gektar
kv	–	kvadrat	t	–	tonna
km	–	kilometr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi
m	–	metr			

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6–13
II. SANOAT	14–25
III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI	26–43
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI	44–56
V. XIZMATLAR	57–72
VI. TRANSPORT	73–75
VII. ISTE‘MOL BOZORI	76–85
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	86–100
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	101–104
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	105–115
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	116–127
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	128–136
XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	137–146

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2023-yil yanvar-iyun

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>2022-yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
 Yalpi hududiy mahsulot	13 414,7	104,0
 Sanoat mahsuloti	9437,1	106,3
 Istemol tovarlari	5 597,2	187,7
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	9 089,5	103,6
 Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	6 309,3	108,5
 Qurilish ishlari	1 939,0	104,0
 Yuk aylanmasi (mln. tn–km)	705,9	131,9
 Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.–km)	1 215,6	101,2
 Chakana savdo tovar aylanmasi	3 652,0	104,7
 Xizmatlar, jami	4 564,1	108,7
 Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.) ¹⁾	510,6	146,5
 Eksport	90,7	84,2
 Import	419,9	174,4
 Saldo (+,-)	-329,2	-

* Ishlab chiqarish

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 13 414,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,5 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 40,2 foiz), sanoat – 106,3 foiz (18,9 foiz), qurilish – 104,0 foiz (6,5 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 103,9 foiz (6,5 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 108,1 foiz (4,0 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 102,3 foiz (23,9 foiz)ni tashkil qildi.



2023-yilning yanvar-iyun oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash, axborot va aloqa



Boshqa xizmat tarmoqlari




YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 119,2 foizni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 043,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 foizga o'sdi.

2023-yilning yanvar-iyun oyida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





2023 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mld. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2022 yil	2023 yil	
I. YAHM	10 818,5	13 414,7	104,0
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 522,6	12 974,2	103,9
 Mahsulotlarga sof soliqlar	295,9	440,5	108,0
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 522,6	12 974,2	103,9
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 386,4	5 220,9	103,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 349,8	3 287,5	105,6
 sanoat	1 589,0	2 446,1	106,3
 qurilish	760,8	841,4	104,0
Xizmatlar	3 786,4	4 465,8	103,3
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	722,8	847,7	103,9
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	440,7	518,3	108,1
 boshqa xizmat tarmoqlari	2 622,9	3 099,8	102,3

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



2023 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



		2022 yil	2023 yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	96,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	3,3
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	41,7	40,2
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,3	25,4
	sanoat	15,1	18,9
	qurilish	7,2	6,5
	Xizmatlar	36,0	34,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,9	6,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,2	4,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	24,9	23,9

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,7 foizni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 40,2 foizni, sanoat tarmog‘i 18,9 foizni, qurilish 6,5 foizni va xizmatlar sohasi 34,4 foizni tashkil qildi.




Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi
yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)








● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar



2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



■ 2022-yil


■ 2023-yil

2023- yilning yanvar-iyunida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 40,2 %), sanoatda – 106,3 % (18,9 %), qurilishda – 104,0 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 103,3 % ni (34,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,9 % (6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,1 % (4,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,3 % dan (23,9 %) iborat bo'ldi.






2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2023- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 119,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 144,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 115,0 % qayd etildi.



Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2023-yil yanvar – iyun oylarida – 6,5 foizni (2022 yil yanvar – iyunda – 6,9 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 4,0 foizni (4,2 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,9 foizni (24,9 foiz) tashkil etdi.



2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 9 007,2 mlrd.so'm (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 7 958,7 mlrd.so'm)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 69,4 % (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 75,6 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

